**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING**
**BUYRUG‘I**

**2023 - yil «5» may 126-son** **Toshkent shahri**

**Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahat-kengashini tuzish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 28-dekabrdagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining 2021-2022-yildagi ijrosi hamda uni amalga oshirish bo‘yicha 2023-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlarni tasdiqlash haqida”gi SQ-682-IV sonli Qarori ijrosi hamda O‘zbekiston Respublikasi Qonunida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha tadbirkorlik subyektlarining, shuningdek fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining vakillari ishtirokida maslahat-kengashlari tuzish” bilan bog‘liq vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida

**B U YU R A M A N:**

1.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 28-dekabrdagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining 2021-2022-yildagi ijrosi hamda uni amalga oshirish bo‘yicha 2023-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlarni tasdiqlash haqida”gi SQ-682-IV sonli Qarorida barcha davlat organlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash bo‘yicha Maslahat kengashlarini tuzilishini ta’minlash to‘g‘risidagi vazifasi ijro uchun qabul qilinsin.

2.Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahat-kengashi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Vazirlik tizimidagi tashkilotlar, hududiy boshqarmalar, oliy ta’lim muassasalari va filiallar rahbarlariga bir oy muddatda belgilangan tavsiyalar asosida maslahat-kengashlarini tuzish vazifasi belgilansin.

4.O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020-yil 25-maydagi 297-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

5.Ushbu buyruq ijrosini ta'minlash vazir o'rinbosari Sh. Turdikulovaga yuklatilsin.

**Vazir** **I.Abduraxmonov**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DEVONXONA

**NUSXA**
**ASLIGA TO'G'RI**

Vazirlikning 2023-yil “5” maydagi
“ 126 ”-sonli buyrug‘iga ilova

**Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligida jamoatchilik asosida Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha tuzilgan maslahat-kengashi tarkibi**

1. **Turdikulova Shaxloxon Utkurovna** — Vazir o‘rinbosari, Maslahat-kengashi — raisi

2. **Xamidov Shuxrat Ne’matulloyevich** – Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi — a’zo

3. **Kasimov Nodir Ulug‘ovich** — Yoshlar siyosati va ma’naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi boshlig‘i — a’zo

4. **Qo‘chqarov Azimjon Nozimjon o‘g‘li** — Yuridik ta’minlash bo‘limi boshlig‘i — a’zo

5. **Abduqayumov Anvar G‘ayratovich** — O‘zbekiston biznes va sanoat kengashi raisi, xususiy tadbirkor — a’zo

6. **Kadirova Fazilat Shukurovna** — Ilm-fan va ta’lim integratsiyasi boshqarmasi boshlig‘i — a’zo

7. **Solixo‘jayeva Dildora Abduraimovna** — Yoshlar siyosati va ma’naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi yetakchi mutaxassisi — a’zo